



UDK:378;37,013,42

*Azamati*on XUDAYNAZAROV,
Mustaqil tadqiqotchi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O'zbekiston.
E-mail: azamation.200992@gmail.com ORCID: 0009-0003-3551-946X

O'zMU professori, s.f.d I.Ergashev tarqizi asosida.

PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING ACTIVE CITIZENSHIP COMPETENCE IN STUDENTS AND YOUTH

Annotatsiya

The article analyzes pedagogical technologies for developing active citizenship competencies in students. The article also analyzes the methods of developing active citizenship competencies through pedagogical technologies, the results achieved through pedagogical technologies, and proposals and conclusions for improving civic competencies.

Keywords: students, active citizenship, competence, civic competence, pedagogical technologies, debate, brainstorming, project-based learning, critical analysis.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ АКТИВНОЙ ГРАЖДАНСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ И МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В статье анализируются педагогические технологии развития у учащихся навыков активной гражданской позиции. Также анализируются методы развития навыков активной гражданской позиции с помощью педагогических технологий, результаты, достигнутые с помощью этих технологий, а также предложения и выводы по повышению гражданской компетентности.

Ключевые слова: учащиеся, активная гражданская позиция, компетентность, гражданская компетентность, педагогические технологии, дискуссия, мозговой штурм, проектное образование, критический анализ.

TALABA-YOSHLARDA FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Maqolada talaba-yoshlarda faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada talaba-yoshlar pedagogik texnologiyalar orqali faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish metodlari, pedagogik texnologiyalar orqali erishiladigan natijalar, fuqarolik kompetensiyasini oshirish bo'yicha taklif va xulosalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlari: talaba-yoshlar, faol fuqarolik, kompetensiya, fuqarolik kompetensiyasi, pedagogik texnologiyalar, bahs-munozara, aqliy hujum, loyihaviy ta'lim, tanqidiy tahlil.

Kirish. Faol fuqarolik demokratik jamiyatda har bir fuqaroning ijtimoiy, siyosiy va huquqiy jarayonlarda ongli va faol ishtirok etishini anglatadi. Bugungi kunda talaba-yoshlarda faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Mamlakatimizni taraqqiyotida talaba-yoshlarning faol fuqarolik kompetensiyasi rivojlanganlik darajasi, ularning erkin fikrlashi, intellektual potentsiali, diplomatik kirishuvchanligi, ta'lim jarayonidagi o'zgarishlar va imkoniyatlar, volontyorlik hamda tub islohotlarni anglay olishi muhim ro'l o'ynaydi. Shuning uchun ta'lim tizimida talaba-yoshlarning faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishni taqozo etadi. Bu jarayonni rivojlantirishga pedagogik texnologiyalarni qo'llay olishligi muhim o'rin tutadi. Shu o'rinda talaba-yoshlarda faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalar to'g'risida tahlillar, takliflar va xulosalar berish maqsadga muvofiqdir.

Asosiy qism. Talaba-yoshlarning mustaqil va kreativ fikrlashlari va novatorlik salohiyatlari, jamiyatdagi mavjud voqelikni tanqidiy va tizimli tahlil qila olishligini rivojlantirish ta'lim muassasalaridagi dars jarayonlarida noan'anaviy usullar asosida dars mashg'ulotlar olib borishiga bevosita bog'liqdir. Shu o'rinda talaba-yoshlarning faol fuqarolik kompetensiyasini

rivojlantiruvchi quyidagi pedagogik texnologiyalarni aytish mumkin: 1) "Bahs-munozara" pedagogik texnologiyasi.

"Munozara" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "fikir almashish" degan ma'noni anglatadi. Istelohda esa, "Ikki yoki undan ziyod insonlarning ma'lum bir masala borasida dalillar asosida fikr almashishga munozara deyiladi." U diniy, ijtimoiy yoki siyosiy masalada bo'lishi mumkin. Bu ilm ham boshqa ilmlarda bo'lgani kabi ba'zi bir shartlarga asoslanadi[1].

"Bahs-munozara" metodi – talabalarni 2 guruhga ajratgan holda ma'lum bir mavzu bo'yicha o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan metoddir. Har qanday mavzu va muammolarni bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilish uchun qo'llaniladi. "Bahs-munozara" metodi talaba-yoshlarni mustaqil fikrlashga undaydi, ularni o'z fikrining to'g'riligini isbotlashga intiladilar va talabalarda eshitish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi. Ko'pchilik o'quv predmetlari va ularning mavzulari ta'lim standartlari, o'qitish dasturlari, o'quv rejasi va ta'lim muassasasining o'ziga xosligiga bog'liq ravishda hamda tinglovchilar (bilim oluvchilar) kontingenti bilan aloqadorlikda munozara tarzidagi o'quv mashg'ulotlarini taqozo etadi. Birinchidan, tinglovchilar faolligi ta'minlanadi. Ikkinchidan, shubhali vaziyatlarga o'rin qoldirilmaydi. Uchinchidan, bilim oluvchilarning istak-xohishlari to'la qondiriladi. Eng muhimi, bunday sharoitda

o'quv materiali to'la-to'kis o'zlashtiriladi. Asoslar, xulosalar, hukmlar va tasavvurlar mukammal ko'rinish va mazmunda bo'ladi. Ko'rsatma va ta'kidlarning ishonchligi yuqori darajada bo'ladi.

Munozara ikki turli bo'ladi:

- boshqariladigan;
- erkin munozara.

Boshqariladigan munozarada o'qituvchining ishtiroki sezilarli darajada bo'ladi, lekin bu ishtirok uning o'quv jarayonidagi hakamlilik mavqeidan oshib ketmasligi lozim. Erkin munozara esa bilim beruvchi va oluvchilarning demokratik tarzidagi ishtiroki bilan o'tkaziladi. Bu har ikki turdagi munozaralarda o'quv haqiqati birinchi o'rinda turadi. Ilmiy bilimlar jonli mushohada, abstrakt tafakkur orqali nisbiy va absolut haqiqat yo'li bilan qoiga kiritilishini hisobga olinsa, bilish jarayonining taraqqiyotini belgilovchi tushuncha, kategoriya, faraz, xulosa, qoida, nazariya, qonun va qonuniyatlar munozara davomida mazmunan buzilmasligi muhimdir.

Munozaraning natijasini o'qituvchi oldindan loyihalashi lozim. Bunda oraliq jarayonlar ikkinchi pozitsiyada turadi. Yakuniy xulosalar ilmiy bilish nazariyasiga zid kelmasligi o'qituvchining kasbiy salohiyati bilan ta'minlanadi.

Erkin munozarani anarxiyaga aylantirmaslik eng muhim pedagogik vazifadir. Uning o'quv qimmatini boshqariladigan munozaradan kamroq baholab bo'lmaydi.

Munozara mashg'ulotlari uchun quyidagi shartlarning bajarilishi muhimdir:

- reglamentga rioya qilish;
- boshlashdan oldin chuqur fikriy tahlil qilish;
- ishtirokchilarning maksimal miqdordagi sonini qo'lga

kiritish;

- o'qituvchining talabalarga nisbatan hukmron bo'lmashligi.

Passiv talabalarining ishtirokini ta'minlash aksariyat o'qituvchilar uchun amalda bajarib bo'lmaydigan jarayondir. Ularni jonlantirish uchun:

- savollar beriladi;
- har bir shaxsning xususiy fikri so'raladi;
- to'g'ri javoblar rag'batlantiriladi;
- noto'g'ri javoblar va xatolar to'g'rilanadi va to'ldiriladi.

Munozaraning muvaffaqiyati talabalarining qiziqishi, bilimi, ahilligi, hur fikrirligi va jamoadagi sog'lom pedagogik-psixologik muhitga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi[2].

Talaba-yoshlar o'rtasida munozara o'tkazilsa, ularda nima kechadi. Ular quyidagilar:

talabalarining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi; o'rgangan bilimlarini markazlashtirishga yordam beradi;

ma'lumotlarni analiz qilish qobiliyatini hosil qiladi; mavjud holatga mos dalillarni oz fursatta taqdim qilishni o'rgatadi;

muammo yoki masalaga har tomonlama qarashni o'rgatadi;

fikrlarini auditoriyaga to'g'ri yetkazish malaka va ko'nikmasini hosil qiladi.

Munozara va debatlar orqali talaba-yoshlarni o'z fikrini asoslab aytishga, turli pozitsiyalarni tahlil qilishga o'rgatadi.

2) "Aqliy hujum" pedagogik texnologiyasi.

"Aqliy hujum" metodi talaba-yoshlarga ijtimoiy muammolarni hal qilishga jamoaviy yondashishni o'rgatadi.

«Aqliy hujum» - muammolarni hal qilishda keng qo'llanadigan anchagina mashhur metoddir. Bu usul katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inersiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir. U qatnashchilarni

o'z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga undaydi va berilgan har qanday muammoga ko'p sonli yechimlar topishda yordam beradi. Aqliy hujum qadriyatlarini tanlash va muqobillarini aniqlashga yordam beradi.

Samarali «Aqliy hujum» metodidan foydalanish quyidagilarni taqozo etadi:

- qatnashchilar bemaol o'tiradigan qilib joylashtiriladi;
- g'oyalarni yozish uchun doska yoki varaqlar tayyorlab qo'yiladi;

- muammo aniqlanadi;

- ish qoidalari belgilanadi;

- g'oyalar hech qanaqasiga baholanmaydi;

- fikrlarga to'liq erkinlik beriladi;

- miqdorga intilish;

- o'qish, qayta o'zgartirish va boshqalar;

- g'oyalar haqida so'rash va aytilishi bilan yozib olish;

- qog'oz varaqlari to'lganda, ularni devorlarga osib

qo'yish;

- o'zidan qo'shib yangi g'oyalarni rag'batlantirish;

- ishni davom ettirish va o'zgaralar g'oyasiga aralashmaslik.

«Aqliy hujum» metodining mohiyati ham o'ziga xos xususiyatga ega. Bunda maqsad berilgan qisqa vaqt ichida ma'lum muammoning yechimini topishga qaratilgan. Bu psixotexnik o'yin mashg'ulot jarayonida ijodiy va noandoza fikrlashni uyg'otadi. Bitta yoki bir necha guruh tashkil etiladi va ular oldiga muammo qo'yiladi. Talabalar o'z oldiga qo'yilgan muammoni yechish uchun turli g'oyalarni ilgari suradi. Yechim variantlari qancha ko'p bo'lsa, tanlash jarayoni shunchalik oson bo'ladi. Har bir ilgari surilgan g'oyani atroflicha ko'rib, kengaytiriladi va ular orasidan eng to'g'ri g'oyani muammoning yechimi sifatida qabul qilinadi. Muammoni yechish vaqti oldindan belgilab olinadi va unga qat'iy amal qilinadi. «Aqliy hujum» o'yini qiyin vaziyatlardan qutulish chorasini tez topishga, muammoni ko'ra bilish chegaralarini kengaytirishga, fikrlash bir xilligini yo'qotishga va keng doirada tafakkur yuritishga imkon beradi. Bundan tashqari jamoadagi munosabatlar o'zgaradi, kurashish kayfiyatidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o'tiladi va guruh yanada jipslashadi[3].

Aqliy hujum metodi talaba-yoshlarning fuqarolik faolligini oshiradi, tashabbuskorlikni kuchaytiradi hamda ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Bu metod nafaqat o'quv jarayonida, balki yoshlar klublari, debatlar va volontyorlik loyihalarida ham samarali ishlaydi. Talaba-yoshlarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ular o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Shuningdek, talaba-yoshlarda guruh muhokamalarida qatnashish orqali o'z fikrini ochiq aytishga o'rganadi, o'zaro hurmat, diqqat bilan tinglash ko'nikmalari shakllanadi va jamoada ishlash madaniyati kuchayadi. "Aqliy hujum" metodini qo'llash natijasida dolzarb ijtimoiy masalalarni birgalikda muhokama qilish talaba-yoshlarning ijtimoiy ongini rivojlantirish, ular jamiyatdagi muammolar yechimida o'z hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'lish, tashabbuskorlik va liderlik, yangi g'oya taklif qilgan yoshlar ko'pincha guruhni ilhomlantirish va shu jarayonda tabiiy liderlar ajralib chiqish kabi samaradorliklarga erishishadi. Kreativ va tanqidiy fikrlash orqali ularda turli fikrlarni eshitish, taqqoslash va birlashtirish orqali ijodiy yondashuv rivojlanadi. Talaba-yoshlar muammoni bir necha tomondan ko'ra olishni o'rganadi.

3) Loyihaviy ta'lim pedagogik texnologiyasi.

Loyihaviy ta'lim texnologiyasi bu talaba-yoshlarning o'z tashabbusi bilan ijtimoiy foydali loyihalarni ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar. Ya'ni ijtimoiy muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish, yechim topish kompetentsiyalarini

shakllantiradi. Loyihaviy ta'lim texnologiyasi - bu o'quv jarayonini loyihalash, amaliy muammolarni yechish va mustaqil tadqiqot olib borish orqali tashkil etishga asoslangan pedagogik texnologiyadir. U o'quvchilarni nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Hozirgi vaqtda ushbu texnologiyani bosqichma-bosqich o'zlashtirish va samarali qo'llashga qiziqish faol o'sib bormoqda. Ma'lumki, bunday usul talabalarning ma'lum shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi: mustaqillik, ijodkorlik qobiliyati, tashabbuskorlik, shuningdek ularning dolzarb qiziqishlari va ehtiyojlarini tan olishga imkon beradi. Shunday qilib, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, loyihani o'qitish g'oyasini yaratish variantlaridan biri XVI asrga to'g'ri kelishi mumkin, Italiyada ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ta'limda "loyiha usuli" paydo bo'lishining zaruriy shartlari bo'lib xizmat qilgan. Dizayn metodologiyasi Rimdagi san'at Akademiyasida me'morlar va rassomlarni o'qitishda qo'llanila boshlandi, chunki mutaxassislarni tayyorlashga yangi talablar paydo bo'lishi munosabati bilan an'anaviy o'qitish usullarini qayta ko'rib chiqish zarurati tug'ildi.

Loyihani o'qitish texnologiyasi dastlab XIX asr oxiri – XX asrlarda AQShda paydo bo'lgan "pragmatik pedagogika" ning nazariy tushunchalariga asoslangan degan fikr keng tarqalgan. Ta'lim sohasidagi innovatsiyalar an'anaviy maktabni tubdan isloh qilish dasturi bo'lib, ta'lim muassasasini hayotga yaqinlashtirish, o'quv jarayonida bolaning tabiiy faoliyati, qiziqishlari va ehtiyojlaridan foydalanish asosida amalga oshirildi. Ushbu yo'nalishning asoschisi taniqli amerikalik faylasuf va o'qituvchi Jon Dyui edi. U ta'limning mohiyatini bolaning kengayib borayotgan shaxsiy tajribasini doimiy ravishda o'zgartirishda ko'rdi.

Ushbu sohadagi zamonaviy qidiruvlarning samaradorligi uchun J. Dyui. - qaniydi? U bilimlarni o'zlashtirish o'z - o'zidan paydo bo'ladigan, boshqarib bo'lmaydigan jarayon ekanligiga ishongan, shuning uchun bilimlarni o'zlashtirish uchun talabalar o'z hayotlaridan kelib chiqadigan va ular uchun muhim bo'lgan muammoni qo'yishlari kerak. Shu bilan birga, u ta'limni bolaning shaxsiy manfaatlariga mos keladigan maqsadga muvofiq loyiha faoliyati orqali amalga oshirish kerakligini ta'kidladi, chunki u materialni nafaqat sezgi organlari tomonidan idrok etish, balki uning ta'limotining faol subyekti bo'lish orqali o'zlashtiradi.

Loyiha texnologiyasi "muammolar usuli", "loyihalar usuli" deb nomlangan va ta'limdagi gumanistik yo'nalish g'oyalari bilan bog'liq. XX asr boshida G'arb mamlakatlaridagi loyihalar usuli nazariy bilimlarning oqilona kombinatsiyasi va ularning atrofida haqiqatning muayyan muammolarini hal qilishda amaliy qo'llanilishi tufayli keng qo'llanilgan[4].

Loyihaviy ta'lim texnologiyasi orqali talaba-yoshlar tayyor bilimni shunchaki o'zlashtirib qolmaydi, balki

muammoni mustaqil tahlil qiladi, oldiga maqsad qo'yadi, loyiha yaratadi va natijani himoya qiladi. Bu yerda o'qituvchi maslahatchi va yo'naltiruvchi sifatida qatnashadi. Loyihaviy ta'lim texnologiyasi talaba-yoshlarda mustaqil izlanish va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi, ularni real hayotdagi muammolarni yechishga tayyorlaydi hamda axborot bilan ishlash (tahlil qilish, taqqoslash, tanqidiy baholash) madaniyatini rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining maqsadi o'quvchilarning nafaqat o'qishda, balki keyingi hayotida ham zarur bo'lgan aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishdir (aniq qaror qabul qilish, ma'lumotlar bilan ishlash, hodisalarning turli tomonlarini tahlil qilish qobiliyati), va hokazo. Talaba-yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda Oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining ta'lim texnologiyalaridan foydalanib darslarni tashkillashtirishga hamda ularda mustaqil ta'lim olishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga bog'liq hisoblanadi. Bugungi kun pedagoglarimiz hamda ota-onalarimizdan yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor beribgina qolmay balki ular bilan ko'proq suhbatlashish hamda shu bilan bir qatorda yoshlarimizni tanqidiy fikrlashga undash kerakligini talab qilmoqda.

Tanqidiy fikrlash yoshlarning muayyan voqea-hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, voqea-hodisaning ijobiy yoki salbiy tomonlarini hisobga olish orqali tizimli fikrlash, uni tekshirish va asosli qaror qabul qilish jarayoni hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash o'ziga xos qiziqish va tahliliy qobiliyatning turli darajalarida namoyon bo'ladi. Talaba-yoshlarda tanqidiy fikrlash ta'lim, amaliyot, hayotiy tajriba va shaxsiy yondashuv orqali rivojlanadi. Shuningdek, tanqidiy fikrlash talaba-yoshlarni murakkab va axborotga boy dunyoda samarali harakat qilishga, hayotiy muammolarni hal qilish hamda ongli qarorlar qabul qilishga muammolarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda talaba-yoshlarda faol fuqarolik kompetentsiyasini rivojlantirish demokratik jamiyatning paydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyalarni to'g'ri tanlash va samarali qo'llash orqali talaba-yoshlarni ongli, faol, mas'uliyatli fuqaro sifatida tarbiyalash mumkin. Talaba-yoshlarni tanqidiy tahlil va mulohaza yuritish orqali demokratik tamoyillar, inson huquqlari va fuqarolik majburiyatlarini chuqurroq anglaydilar, faol fuqarolikka asos soladilar. Bundan tashqari, siyosiy va ijtimoiy fanlarni o'qitish talabalarga ijtimoiy-siyosiy tizimlardagi ishtirok etishini shakllantirishda, shuningdek, faol fuqarolik rolini o'rganish imkonini beradi. Munozaralar va loyihaga asoslangan o'quv faoliyati orqali talabalar ijtimoiy-siyosiy darslarni zamonaviy muammolarga qo'llash va ijtimoiy muammolarni hal qilish yo'llarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

ADABIYOTLAR

1. Elektron manba: <https://mirarabmadrasa.uz/oz/news/237> [Murojaat qilingan sana: 01.07.2025].
2. Omonov H.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: "Iqtisod-moliya". 2009. – 127-128 b.
3. Лобанова, Е. В. Технология проектного обучения: история и современность / Е. В. Лобанова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2022. — № 11 (406). — С. 253-256. — URL: <https://moluch.ru/archive/406/89552/>.
4. Urinbayevich K.A. Factors for Increasing the Activity of Youth of Uzbekistan in the Field of Science and Education //Middle East Journal of Applied Science & Technology. – 2022. – T. 5. – №. 1. – S. 33-37.
5. Abdurakhmonovich S. B., Urinbaevich K. A. The Role of Reading in Increasing the Activity of Youth in Socio-Political Processes //Middle European Scientific Bulletin. – 2022. – T. 23. – S. 222.
6. Urinbayevich K. A. YOUTH OF UZBEKISTAN AS A SUBJECT OF CHANGES IN POLITICAL PROCESSES //Open Access Repository. – 2023. – T. 4. – №. 3. – S. 1455-1464.
7. Xudaynazarov A. yoshlar ishtirokini oshirishda yoshlar parlamentlarining o'rni (xalqaro va o'zbekiston misolida) //News of the NUUZ. – 2024. – T. 1. – №. 1.12. – С. 250-252.